

## TARIX DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Botirova Sevara Mamurovna,  
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi (PhD)

*Annotatsiya: Hozirgi zamon tarix darslarini o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar hamda uning samaradorligini oshirishda, asosiy o'rinni ta'limga interfaol usullarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarini kiritish va ulardan mohirona foydalanish muhim o'rinda turadi. Zero, an'anaviy ta'limda o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga yo'naltirilsa, rivojlantiruvchi ta'lim mezonlariga muvofiq bilimlarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil qidirib topishi, o'rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga yo'naltirilishi ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada tarix darslarida innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarning kommunikativ va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda metodik tavsiyalar tahlil qilinadi.*

*Kalit so'zlar: tarix darslari, tarix fani o'qituvchisi, innovatsion texnologiyalar, o'quvchilar, nutqiy kommunikativ qobiliyat*

## METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE SKILLS BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN HISTORY LESSONS

Botirova Sevara Mamurovna,  
(PhD) Senior teacher of Namangan State Pedagogical Institute

*Abstract: In order to meet the requirements for the teaching process of modern history classes and increase its effectiveness, the introduction of interactive methods and innovative pedagogical technologies into education and their skillful use are important. Because, in traditional education, students are directed to acquire ready-made knowledge, and in accordance with the criteria of developmental education, it is important for students to be able to independently search for knowledge, learn, analyze and draw their own conclusions. This article analyzes methodical recommendations for the development of communicative and speech skills of students based on innovative technologies in history classes.*

*Key words: history lessons, history teacher, innovative technologies, students, verbal communication skills*

## МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

Ботирова Севара Мамуровна,  
(PhD) Старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института

*Аннотация: Для удовлетворения требований к учебному процессу на уроках современной истории и повышения его эффективности важное значение имеет внедрение в образование интерактивных методов и инновационных педагогических технологий, их умелое использование. Потому что в традиционном образовании учащиеся направлены на приобретение готовых знаний, и в соответствии с критериями развивающего обучения важно, чтобы учащиеся имели возможность самостоятельно искать знания, учиться, анализировать и делать собственные выводы. В данной статье анализируются методические рекомендации по развитию коммуникативных и речевых навыков учащихся на основе инновационных технологий на уроках истории.*

*Ключевые слова: уроки истории, учитель истории, инновационные технологии, учащиеся, навыки речевого общения.*

*Kirish. Bugungi kunda tarix fani o'qituvchisidan birinchi navbatda uning maqomini oshirish, nufuzini belgilaydigan xislatlar ma'naviyati, saviyasi, bilim doirasi, dunyoqarashining kengligi, mutaxassislik fanlarini puxta bilish hamda o'z ustida ishlashi bilan belgilanadi. Shu bilan birga tarix fani o'qituvchisi*

obro'sini belgilovchi mezonlar sifatida o'qituvchining bilimdon, halol, innovator, mehribon shirinso'z, kommunikativ bo'lishi shu bilan birga innovatsion texnologiyalarni mukammal o'zlashtirish, ulardan dars jarayonida samarali foydalanishni taqozo qiladi. O'qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rishlari lozim, bu o'z navbatida, ta'lim muassasasi rahbarlari va o'quv-uslubiy birlashmalari xodimlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan ta'limni rivojlantirishning istiqbol rejalarini tuzishda asosiy e'tiborni o'qituvchilarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun zamin yaratish hamda tushuntirish ishlarini olib borishga qaratishlarini talab etadi. Tarix fani o'qituvchilarining kasbiy qiziqishlari doirasini kengaytirishga, metodik adabiyotlarni o'rganishdan nazariy-amaliy pedagogik salohiyatlarini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Men barchangizni tarixni o'rganishda yanada uyg'oq, yanada faol bo'lishga chaqirmoqchiman. Tarixga sergak qaragan odamgina doimo hushyor va ogoh bo'lib yashaydi. Bugungi vaziyatga ham kelgusi jarayonlarga ham xolis va haqqoniy baho bera oladi. Bu esa hozirgi murakkab va shiddatli zamonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishishning eng muhim shartidir" [1].

Tarix fani o'qituvchisi ma'lum zaruriy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va shu bilimlarni o'quvchilar ongiga singdirib, ularning olgan bilimlarini shaxsiy e'tiqodlariga o'sib o'tishiga erishtirmoq metodikasidan ham mohirona foydalana olmog'i lozim. Aks holda "Ta'lim — o'quvchilarga! Prinsipining amalga oshmasdan, ta'lim harakatsiz konservatsiya holida qolib ketishi mumkin" [2; 7-bet].

Taniqli tarixchi-metodist olim A.I.Strajyov tarix o'qituvchilari uchun egallashi zarur bo'lgan bilim va metodik mahorat xususida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: "birinchidan, tarixni ilmiy-metodologik jihatdan batafsil o'zlashtirib olmog'i kerak; ikkinchidan, turli sohalar bo'yicha aniq, tarixiy bilimlar bilan qurollangan bo'lmog'i kerak; uchinchidan, keng miqyosdagi umumma'naviy, umumbashariy dunyoqarashga ega bo'lmog'i kerak; to'rtinchidan, pedagogik hamda psixologik bilimlarni o'z ichiga olgan, mustaqil pedagogik fan va san'at sifatida shakllangan fan — tarix o'qitish metodikasi bilan har tomonlama qurollangan, zamonaviy tarix o'qituvchisiga xos sifatlar majmuyining sohibi bo'lmog'i kerak" [3; 278-bet].

Tarix ta'limi tizimi sohasiga tashqi tomondan doimo bo'lib turadigan o'zgarishlar amaldagi ta'lim tizimi oldiga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, madaniyat va kundalik pedagogik amaliyot o'quvchilarning ko'nikuvi muammolarini uzluksiz ravishda ko'ndalang qo'yimoqda. Shu munosabat bilan tarix ta'limi tizimida tarix fanining tadqiqot jarayoni samaradorligini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarish, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini zamonaviy o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, zamonaviy ta'lim mazmunini shakllantirish, uzluksiz ta'lim bo'g'inlariga mos bo'lgan davlat standartlari ishlab chiqishga kirishilgan va bu jarayon har bir fan xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

"Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat kursatkichini kafolatlashda zamonaviy pedagogik texnologiya hal qiluvchi omillardan bo'lib bormoqda. O'quv jarayonini demokratlashtirish, kelishuvchanlik asosida tashkil qilishda hamkorlik, ijodkorlik rivoj topmoqda. Bular o'quvchining o'quv mehnatini amalga oshirishida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi va o'qituvchini doimiy izlanishga, uzluksiz o'z ustida ishlashga undaydi. Bu, o'z navbatida, ta'limda samaradorlikni ta'minlaydi" [4; 3-bet].

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, kundan kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri – an'anaviy ta'limda o'quvchilarni tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, endi zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari mustaqil qidirib topishlariga, anglashlariga, tahlil qilishlariga, mavzuga oid mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Mazkur jarayonda o'qituvchi o'smir shaxsning rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga zarur sharoit yaratadi va bu bilan bir qatorda o'zining boshqaruvchanlik hamda yo'naltiruvchanlik vazifasini bajarib boradi. Dars jarayonida o'quvchi endi asosiy figuraga aylanadi. Demak, ta'lim jarayonida innovatsion o'qitish metodlari — interfaol metodlar, axborot texnologiyalarning o'rni va roli katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qituvchining mahorati, bilimi, tajribasi o'quvchilarni bilimli, yetuk, barkamol shaxs sifatida kamolga yetishlarini ta'minlaydi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida trening texnologiyadan ham unumli foydalanish maktab o'quvchilarining kommunikativ va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Trening (inglizcha train – o'rgatish, tarbiyalash) – bilim, ko'nikma va ijtimoiy munosabatlarni

rivojlantirishga qaratilgan faol o'rganish usuli. Agar kerakli natija nafaqat yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, balki olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'lsa, trening ko'pincha qo'llaniladi.

Treningni turli maqsadlarda ko'rish mumkin:

ta'lim jarayonining o'ziga xos muhiti sifatida, ijobiy mustahkamlash yordamida zaruriy xatti-harakatlar namunalari shakllanadi hamda salbiy mustahkamlash yordamida keraksiz bo'lgan naqshlar "o'chiriladi"-korreksiya qilinadi;

kommunikativ malaka va ko'nikmalarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi o'qitish metodi sifatida; trening faol o'qitish metodi sifatida, bilimlarni uzatish, muayyan ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi;

trening ishtirokchilarning o'zini o'zi ochishi va o'zlarining psixologik muammolarini hal qilish yo'llarini mustaqil izlash uchun sharoit yaratish usuli sifatida.

Innovatsion ta'lim shakllarining afzalliklari:

Birinchidan, mazkur usullar dars jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarini tushunishi, o'zlashtirishi va ijodiy jarayonni faollashtirishga imkon beradi, dars davomida nafaqat bilim olish, balki bevosita foydalanish jarayonida faol ishtirok etishi ta'minlanadi. Mashg'ulotlar paytida o'qitishning ilg'or shakl va usullaridan muntazam foydalanilsa, o'quvchilarda o'ziga ishonchsizlik tuyg'usi yo'qoladi va o'qituvchi bilan ishonchli munosabatlar o'rnatiladi;

ikkinchidan, o'qitishda trening metodidan foydalanish ishtirokchilarni muammolarni hamkorlikda hal qilish jarayoniga qiziqishlarini oshiradi va mashg'ulotlarda faol ishtirok etishga bo'lgan ehtiyojlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'quvchilarning izlanish faolligini kuchaytiradi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi, tanqidiy, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini o'ziga xos tarzda hal etish qobiliyatini shakllantiradi. O'z pozitsiyalarini, hayotiy qadriyatlarini asoslash; bag'rikenglik ko'rsatish bilan birga, boshqa nuqtayi nazarni tinglash qobiliyati, hamkorlik qilish, sheriklik munosabatlariga kirishish kabi xususiyatlarni rivojlantiradi ...".

Rasmiy jihatdan trening – bu shaxsning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga, o'zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishga qaratilgan rahbar boshchiligidagi guruh mashg'ulotlari; shaxsiy tajribani olishning o'ziga xos usullaridan biri, bu yerda "har qanday treningning asosi guruh ishi bo'lib, bu uni maxsus tashkil etilgan guruh ta'sirida shaxsga ta'sir qilishning juda qulay texnologiyasiga aylantiradi" [5].

Hozirgi kunda psixologiyada trening tushunchasiga oid ko'p tarqalgan ta'riflar keltiriladi. Rus olimasi L.A.Petrovskaya psixologik treningni shaxslararo muloqot jarayonida bilim, ko'nikma va malaka ijtimoiy tamoyillar hamda tajribalarni rivojlantirishga omil bo'luvchi ta'sir etish vositasi ekanligini, muloqot jarayonida kompetentlikni rivojlantirish, psixologik ta'sir ko'rsatish vositasi ekanligini ta'kidlaydi.

G.A.Kovalevning fikricha, psixologik trening bu–majmuaviy ijtimoiy didaktik yo'nalish bo'lib, faol ijtimoiy-psixologik o'qitish metodlaridir. B.D.Parigin guruhiy maslahat metodlarini umuman jamiyat va hayotda muloqot qilish ko'nikmalariga o'rgatuvchi faol o'qitish uslubi sifatida tavsiflaydi.

Yuqoridagilaridan kelib chiqqan holda psixologik treningga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. Treninglar ko'p funksiyaga ega bo'lib, ular inson psixologiyasini maqsadli o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, guruh va tashkilotlar, insonning professional shaxsiy muvofiqligini ta'minlaydigan metoddir.

Treninglarni tashkil etishdan asosiy maqsad: o'quvchilarni psixologik (ruhiy) jihatdan ozod qilish, o'zlarida tabiiy erkinlikni his etishni, o'z guruhida tengdoshlari bilan va undan tashqarida o'qituvchilar va boshqalar bilan o'zaro samarali munosabat va aloqa o'rnatish o'rgatishdan iborat. Demak, trening – shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisidir.

Shaxslararo kommunikativ ko'nikmalarini dars jarayonida o'quvchilarda rivojlantirish, takomillashtirish uchun tashkil etiladigan treninglarning maqsadi – muloqot jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli hamda muammoli holatlarni bartaraf etishga o'rgatishdan iborat. O'tkaziladigan treninglar treninglar ishtirokchilarga nima beradi?

Trening jarayonida har bir ishtirokchida kuzatuvchanlik qobiliyatining oshishiga yordam beradi;

Treningda ishtirok etayotgan sherigining verbal (so'z,nutq), noverbal (imo-ishora,hatti-harakat) muloqoti jarayonidagi farqni ajrata olishga o'rgatadi, ya'ni o'quvchilar muloqot davomidagi sherigining so'zlari bilan mutanosib bo'lmagan xatti-harakati, holati, imo-ishoralarni anglay olishga, tahlil qilishga o'rganadi;

Har qanday vaziyatlarda ham suhbatdoshi bilan samarali muloqotga kirisha olish yo'llarini egallashga o'rgatadi;

Nizoli va muammoli vaziyatlarda hulq-atvorini me'yorida ushlab turishga o'rgatadi;

Muloqot jarayonida boshqalarni, o'zini, shuningdek, odamlar orasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga o'rgatadi;

Shaxsning o'zini-o'zi anglash jarayonini tezlashtiradi;

O'zi va suhbatdoshining emotsional holatini solishtirishga, o'zidagi emotsional zo'riqishni pasaytirishga o'rgatadi.

Trening quyidagi usullardan iborat:

Keys – bu javob va yechimni talab qiladigan muammoli vaziyat. Ishning yechimi ham individual, ham guruhning bir qismi sifatida sodir bo'lishi mumkin. Ishning asosiy vazifasi – axborotni tahlil qilishni o'rganish, asosiy muammolar va yechimlarni aniqlash va harakat dasturini shakllantirish.

“Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'lim sohasidagi dolzarb bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi” [6;12-bet].

Ishbilarmonlik o'yini – bu kasbiy faoliyatning, ijtimoiy o'zaro ta'sirning turli jihatlariga taqlid qilish.

Rolli o'yin – bu ishtirokchilarning muayyan vaziyatni hal qilish yoki ishlab chiqish uchun muayyan rollarni bajarishi.

Guruh muhokamasi – muammoli vaziyat, savol yoki topshiriqni birgalikda muhokama qilish va tahlil qilish. Guruh muhokamasi tuzilgan (ya'ni murabbiy tomonidan savollar yoki muhokama qilinadigan mavzular orqali boshqarilishi) yoki tuzilmagan (uning muvofaqqiyatli o'tkazilishi guruh muhokamasi ishtirokchilariga bog'liq) bo'lishi mumkin.

“Aqliy hujum” ijodkorlikni rag'batlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Maxsus qoidalarni qo'llash orqali murakkab muammolarning yechimini topishga imkon beradi. Birinchidan, ishtirokchilardan iloji boricha ko'proq variant va g'oyalarni, jumladan, eng xayoliylarini ifoda etishlari so'raladi. Keyin bildirilgan fikrlarning umumiy sonidan amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng muvaffaqiyatli rollari tanlanadi.

“Fasilitatsiya – bu guruh ichidagi ma'lumotlar almashinuvini rag'batlantirish vositasi. Fasilitatsiya sizga xabardorlik jarayonlarini tezlashtirishga, guruh dinamikasini rag'batlantirishga imkon beradi. Fasilitatsiya paytida murabbiy guruh muhokamasi jarayoniga yordam beradi, bu jarayonni to'g'ri yo'nalishga yo'naltiradi” [7].

“Videotahlil – bu trener tomonidan tayyorlangan videolar yoki trening ishtirokchilari turli xil xatti-harakatlarni namoyish etadigan video yozuvlar namoyishi bo'lgan vositadir. Video tahlili har xil turdagi xatti-harakatlarning afzalliklari va kamchiliklarini vizual tarzda ko'rib chiqishga imkon beradi” [8].

Trening samaradorligi ko'p jihatdan muloqotdagi ishonch prinsipiga amal qilinish bilan bog'liqdir. Faqatgina, guruhda yaratilgan ishonch va samimiylik muhitigina guruh qatnashchilarining mashg'ulotda ko'rilayotgan barcha vaziyatlarga xolis fikr bildirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Ishonish bu yerda faqatgina guruh ekspertining guruh qatnashchilariga bo'lgan ishonchini emas, balki ko'rilayotgan masalani hal qilish jarayonida qatnashchilarning o'zaro birgalikda bir butun bo'lib harakat qilishlarini ham ta'minlaydi.

Treningni olib boruvchi va ishtirokchilar, shuningdek, ishtirokchi-ishtirokchi ta'limdagi o'zaro hamkorlikni yuzaga kelishini ta'minlovchi ta'limiy faoliyat interfaol ta'lim deb yuritiladi. Interfaol ta'limda trener-ishtirokchilar, shuningdek, ishtirokchi-ishtirokchi ta'limda yuzaga keluvchi o'zaro munosabat, odatda, u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, qarorlarni qabul qilish borasidagi takliflarning ilgari surilishi va yakuniy qarorning qabul qilinishini ifodalaydigan munozara shaklida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlar turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi. O'quv materialini samarali o'zlashtirish jarayoni qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchining o'z shaxsiy tajribasi ta'lim samaradorligining asosiy manbasi hisoblanadi.

Xulosa

Trening ishlarida juda ko'plab mashaqqatli usullar va texnika ishlatilishiga qaramasdan, trening usullarining bir nechta bazalari mavjud. Shunday metodlardan ma'ruza, guruh bahsi, aqliy hujum va vaziyatli rolli o'yinlar alohida e'tiborga ega. Bundan tashqari trening nazariyotchilari va amaliyotchilari

asosiy usullar qatoriga senzitiv treningni ham qo‘shishni taklif qiladilar. Bu esa shaxslararo sezgirlikni mashq qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ishtirokchilarning ruhiy jismoniy birligini sezishga o‘rgatadi. Bu o‘zining ichiga noverbal o‘zaro harakat texnikasini qamrab olgan bo‘lib, bu narsa tanani tiliga sezgirlikni orttiradi. Bizning fikrimizcha, so‘nggi yillardagi trening amaliyoti trening ishlarida meditatsiya va suggestiv texnikadan foydalanishni to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 09.05.2019. <https://uza.uz/uz/posts/>.

Тошпўлатов Т., Гаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2010. – Б. 7.

Стражёв А.И. Методика преподавания истории. Пособие для учителей. — М.: 1964. – С. 278.

Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2004. – Б. 3.

Тренинг коммуникативных умений – как эффективная педагогическая технология. Учебное пособие для преподавателей. Уссурийск, 2014.

Авлаев О.У., Бутаева У.А., Амирова Г. Таълимда интерфаол метод ва тренинглр. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: 2017. – Б. 12.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/Фасилитация>

<https://ru.wikipedia.org/wiki/Видеоаналитика>